

O'zbekiston Prezidenti Qozog'istonga jo'nab ketdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat rahbarlarining "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" formatidagi birinchi majlisida ishtirok etish uchun 27-oktabr kuni amaliy tashrif bilan Ostona shahriga jo'nab ketdi.

Tadbirda mintaqamiz mamlakatlarining yetakchilari va Yevropa kengashi Prezidenti Charl Mishel ishtirok etadi.

Sammitda siyosiy muloqotni rivojlantirish, hududlararo hamkorlikni kengaytirish, savdo-iqtisodiy sheriklik va madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish istiqbollari muhokama qilinadi.



Manba